



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
KATTAQO'RGON SHAHAR YURIDIK XIZMAT  
KO'RSATISH MARKAZI

Kattaqo'rgon shahar A.Navoiy ko'chasi 156-й Davlat xizmatlari markazi binosi

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

Hujjat raqami № XQ66385204

1. Loyiyaning turi. Shartnoma.
2. Loyiyaning nomi.

2022 йил 17 maydagi Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi hamda Dilshoda Obod Qurg'on MCHJ o'rtasida tuzilgan 17/0521-sonli oldi-sotdi shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yil 17 mayda ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Kattaqo'rg'on shahar yuridik  
xizmat ko'rsatish markazi  
boshlig'i:**



Z.Abduraximov

# Joriy ta'mirlashga oid ShARTNOMA №17/05-21

Kattaqo'rg'on shahri

« 17 » May 2022 yil

**"DILSHODA OBOD QO'RG'ON" Masuliyati cheklangan jamichti** keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi A.Mamatov nomidan, bir tomondan va Kattaqo'rg'on shahar Maktabgacha talim bo'limi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining Nizomi asosida ish yurituvchi V.V.B direktor E.Raximov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. ShARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" **Kattaqo'rg'on shahar Xokimiyati 2022 yil 8 apreldagi VI -54-59-7-106-K/22 -sonli sessiya qaroriga asosan fukarolar tashabbusi jamgarmasida shakllangan mablagi hisobidan 21- MTT binosini joriy tamirlash ishlarini bajarish** (keyingi o'rinlarda - "Ishlar" deb yuritiladi) ishlarini bajarish, "Buyurtmachi" ushbu "Ishlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Ishlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

№	Ishning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Shartnomaning umumiy qiymati (bitim summasi)
1	<b><u>Kattaqo'rg'on shahar 21- MTT binosini joriy tamirlash ishlarini bajarish</u></b>	usluga	1	299 500 000
	Jami (QQS siz)			39 065 217
	Jami (QQS bilan)			299 500 000

- 1.2. Shartnomaning umumiy summasi **299 500 000 (Ikki yuz to'qson to'qqiz million besh yuz ming )** so'mni tashkil qiladi (QQS bilan)

1.3. Ishni boshlash va topshirish muddati: Boshlanishi: Shartnoma Kattaqo'rg'on shahar G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab. Tugashi: "30" Iyun 2022 y.

## 2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 2.1. "Buyurtmachi" ning huquqlari:

- 2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
- 2.1.2. "Bajaruvchi" dan "Ishlar" "Buyurtmachi" ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;
- 2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq, bajariladigan «Ishlar» ni nukson dalolatnomasiga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Ishlar" ko'rsatilishini talab qilish;
- 2.1.4. Zarur sifatga ega bo'lmagan "Ishlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:  
- zarur sifatga ega bo'lmagan "Ishlar" shunga o'xshash "Ishlar" bilan almashtirilishini;  
- "Ishlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;  
- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;
- 2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

### 2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

- 2.2.1 O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Ishlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

### 2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

- 2.3.1. Ko'rsatilgan "Ishlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;
- 2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Ishlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

### 2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

- 2.4.1. "Buyurtmachi"ga "Ishlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;
- 2.4.2. Agar "Ishlar"ni bajarish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun muddatda tekin ta'mirlab berish.

## 3. ShARTNOMANING

### BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

Кўриб чиққан юрист: ABDURAXIMOV ZAFAR USAROVICH. Хужжат рақами: VZ4354513176

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi 299 500 000 (Ikki yuz to'qson to'qqiz million besh yuz ming ) so'mni tashkil etadi. Bajariladigan "Ishlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. Ko'rsatilgan "Ishlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

3.3. "Buyurtmachi" mazkur kontraktni Kattaqo'rg'on shahri buyicha G'aznachilik bulinmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq kontrakt umumiy summasidan 30 % miqdorida (shartnoma summasining 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 80 % ni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 10 bank ish kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.

#### **4. SHARTNOMANING BAJARILISHI**

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Ishlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Ishlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan xajmdan ortiqcha bir nomda "Ishlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Ishlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Ishlar"ning o'rnini to'ldirilishi kerak, bunday "Ishlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Bajarilgan "Ishlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada bajarilgan "Ishlar" xajmi, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Ishlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Ishlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Ishlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

#### **5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1. Bajarilayotgan "Ishlar" sifati, xajmi "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" bajarilayotgan "Ishlar"ning sifatini, shuningdek ularning xajmini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar bajarilgan "Ishlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Ishlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Ishlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Ishlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Ishlar" bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Ishlar bajarish kechiktirilgan yoki to'liq bajarilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan "Ishlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Ishlar" bajarish muddati kechiktirilishi yoki to'liq bajarilmasligi tufayli yetkazilgan zararlari qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Bajarilgan "Ishlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yukori deb topilgan taqdirda urtadagi fark «Ishlar» bajaruvchi tomonidan koplanadi.

#### **6. SHARTNOMANING AMAL QILISHI**

6.1. Mazkur shartnoma 2022 yil «17» maydan 2022 yil «31» dekabrgacha amalda bo'ladi.

6.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

6.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.
- Fors-Major xolatlarida

#### **7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: XQ66385204

7.1. Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartlarni bajarmagan taqdirlarida O'z.R. Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

7.2. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar nizolar O'z.R. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunga va Fuqarolik kodeksiga asosan Iktisodiy sudi tartibida hal qilinadi

7.3. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda barcha masalalar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan xal qilinadi, kelishish imkoni bo'lmaganda Iktisodiy sudida xal qilinadi.

#### 8.FORS – MAJOR

8.1. Taraflardan biri shartnomaning yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulotda muayyan sharoitida oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-xavo sharoiti, xukumat tadbirlari, xokimiyat organlarining qarorlari, xarbiy nizolari, ichki tartibbuzarliklar va boshqa tabiiy ofatlar) fors-major tufayli bajarili bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagmnligi isbotlansa javobgar bulmaydi.

8.2. Mazkur shartnoma bajarmagan yoki lozim darajada bajarilmasa tomonlar Uzbekiston Respublikasi "Xujalik yurituvchi subektlari faoliyatining shartnomaviy xukukiy bazasi tugrisidagi" gi konuni va Uzbekiston Respublikasining boshka amaldagi konunlari talablari buyicha javobgar buladi.

#### 9. SHARTNOMANING QONUNY KUCHGA KIRISHI

9.1 Shartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

9.2 Shartnoma taraflar tomonidan imzolanib Kattaqo'rg'on shahri buyicha G'aznachilik bulinmasidan ruyxatdan utgandan so'ng konuniy kuchga kiradi.

#### 10. YaKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

10.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

#### 11. TOMONLARNING YurIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Bajaruvchi»

«Buyurtmachi»

#### "DILSHODA OBOD QO'RG'ON" MChJ

Manzili: Kattaqo'rg'on tuman  
Yangi Xavot MFY Boynazar k-k 106 -uy  
tel/faks : +99890-504-81-01  
x\l: 20208000900693297001  
Bank nomi: ATB "Xalqbank"  
Kattaqo'rg'on sh filiali  
MFO: 00725 INN: 304 443 047  
OKONX: 41202

Kattakurgon shaxar

Maktabgacha talim bo'limi (21-MTT)  
Manzili: Kattakurgon sh Semrug' №7  
tel/faks 456-03-33  
sh\zv 401722860184067091100251003

budjetdan mablag oluvchining STIRi 207266687  
OKONX

Kattakurgon shaxri buyichaGaznachilik bulinmasi  
Gazna x/v 23402000300100001010  
Toshkent sh., Markaziy Bankning XKKM  
MFO 00014  
Gaznachilik STIRi 201122919

Raxbar:

A.Mamatov

(imzo)

M.U.

v.v.b Raxbar:

E.Raximov

(imzo)  
M.U.



Sotib olish uchun № 80902-sonli tanlov bo'yicha xarid komissiyasi bayonnomasi

**Kattaqo'rg'on shahar Xokimiyati 2022 yil 8 apreldagi VI -54-59-7-106-K/22 -sonli sessiya karoriga asosan fukarolar tashabbusi jamgarmasida shakllangan mablagi hisobidan 21- MTT binosini joriy tamirlash ishlarini bajarish** elektron o'tkazish usuli

Sana 12.05.2022

Mulohaza vaqti 12/05/2022 18:48

Kattaqo'rg'on shahar maktabgacha talim bo'limi tanlov komissiyasi, (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) iborat:

**Komissiya raisi** TUVALBOYEV ADHAMJON BAHODIR O'G'LI - Davlat va nodavlat MTT lari faoliyatini hamda o'qitishning muqobil shakllarini tashkil etish sho'basini mudiri MTB

**Komissiya kotibi** KURBONOVA FERUZA BAXTIYO'R-QIZI - Davlat va nodavlat MTT lari faoliyatini hamda o'qitishning muqobil shakllarini tashkil yetish metodisti MTB

**Komissiya a'zosi** RIZAYEVA ELEONORA BAXTIYOROVNA - Tovar moddiy qiymatliklar hisobi bo'yicha hisobchi MTB

**Komissiya a'zosi** USAROV NAJMIDDIN MARDONOVICH - Bosh hisobchi MTB

**Komissiya a'zosi** MARDANOV XURSHID SAMATDJANOVICH - Kommunal xizmatlar bo'yicha inspektor MTB

**Komissiya a'zosi** RAXIMOV ERKINJON ABDURAXMANOVICH - Maxsus tamirlash ekspuluatatsiya xizmati rahbari MTB

Ye'lon qilingan ye'lon bo'yicha ishtirokchilardan tushgan takliflarni maxsus ko'rib chiqib 12/05/2022-sonli 80902-sonli axborot portal

Takliflarni baholash usuli-bu nuqta usuli (texnik malaka qismining og'irlik koeffitsienti : 80.00 / vazn narx qismining koeffitsienti: 20.00)

Min. hisob: 50

Xarid qilish mavzusi:

Mahsulot nomi (ishlar, xizmatlar)	<b><u>21- MTT binosini joriy tamirlash ishlarini bajarish</u></b>
Batafsil tavsif	<b><u>Kattaqo'rg'on shahar Xokimiyati 2022 yil 8 apreldagi VI -54-59-7-106-K/22 -sonli sessiya karoriga asosan fukarolar tashabbusi jamgarmasida shakllangan mablagi hisobidan 21- MTT binosini joriy tamirlash ishlarini bajarish</u></b>
Tovarlar miqdori	1
O'lchov birligi	
Tovarlar (xizmatlar) narxi boshiga birlik	300 000 000
Boshlang'ich miqdori	300 000 000
Valyuta	UZS

Texnik qism bo'yicha qabul qilingan takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra ishtirokchilarga quyidagilar topshirildi ballar:

**1-sonli mezon: uzoq muddatli va uzoq muddatli qarzni to'lash;**

Turi: Ikkilik Qiymat

Tavsif: soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi

Majburiyat: Muhim

Nomi ishtirokchi	Yuqoru ball	Qiymati ishtirokchi	Ball ishtirokchi	Turi baholash	Eslatma:	Buning sababi
MChJ "DILSHODA OBOD QO'RG'ON"	20	1	19	Mutaxassis		
MChJ USTO ISMOIL TEMIR BETON	20	1	17	Mutaxassis		
MChJ LYUKS STROY BIZNES 555	20	1	17	Mutaxassis		
MChJ NUR COMPANY	20	1	16	Mutaxassis		

Texnik qism bo'yicha qabul qilingan takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra ishtirokchilarga quyidagilar topshirildi ballar:

**2-sonli mezon: shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi**

Turi: Ikkilik Qiymat

Tavsif: shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi

Majburiyat: Muhim emas

Nomi ishtirokchi	Yuqoru ball	Qiymati ishtirokchi	Ball ishtirokchi	Turi baholash	Eslatma:	Buning sababi
MChJ "DILSHODA OBOD QO'RG'ON"	20	1	19	Mutaxassis		
MChJ USTO ISMOIL TEMIR BETON	20	1	17	Mutaxassis		
MChJ LYUKS STROY BIZNES 555	20	1	17	Mutaxassis		
MChJ NUR COMPANY	20	1	16	Mutaxassis		

**3-sonli mezon: o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi**

Turi: Ikkilik Qiymat

Tavsif: o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi

Majburiyat: Muhim

Nomi ishtirokchi	Yuqoru ball	Qiymati ishtirokchi	Ball ishtirokchi	Turi baholash	Eslatma:	Buning sababi
MChJ "DILSHODA OBOD QO'RG'ON"	20	1	20	Mutaxassis		
MChJ USTO	20	1	00	Mutaxassis	Diskvalifikatsiya	13-maktab

ISMOIL TEMIR BETON					qilingan	binosini joriy ta'mirlash ishlari malumotlar notugri takdim kilinga
MChJ LYUKS STROY BIZNES 555	20	1	17	Mutaxassis		
MChJ NUR COMPANY	20	1	20	Mutaxassis		

**4-sonli mezon: shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik**

Turi: Ikkilik Qiymat

Tavsif: shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik

Majburiyat: Muhim

Nomi ishtirokchi	Yuqoru ball	Qiymati ishtirokchi	Ball ishtirokchi	Turi baholash	Eslatma:	Buning sababi
MChJ "DILSHODA OBOD QO'RG'ON"	20	1	20	Mutaxassis		
MChJ USTO ISMOIL TEMIR BETON	20	1	15	Mutaxassis		
MChJ LYUKS STROY BIZNES 555	20	1	15	Mutaxassis		
MChJ NUR COMPANY	20	1	17	Mutaxassis		

Moliyaviy qismi ishtirokchilari baholash tashkil etdi:

Nomi ishtirokchi	Boshlang'ich narx	Tavsiya etilgan narx	Taklif sanasi	Qiymatni baholash(ball)
MChJ "DILSHODA OBOD QO'RG'ON"	300 000 000	299 500 000	11.05.2022 16:25:33	18,03
MChJ LYUKS STROY BIZNES 555	300 000 000	299 000 000	12.05.2022 13:10:36	18,06
MChJ NUR COMPANY	300 000 000	270 000 000	12.05.2022 15:00:39	20,00

Moliyaviy qismi, shu jumladan, ishtirokchilar yakuniy baholash tashkil etdi:

Nomi ishtirokchi	Texnik jihatdan umumiy ball qismlari	Moliyaviy umumiy ball qismlari	Yakuniy ball
MChJ "DILSHODA OBOD QO'RG'ON"	79.2	18.030	97.23
MChJ LYUKS STROY BIZNES	68.8	18.06	86.86

555			
MChJ NUR COMPANY	72.8	20.00	92.8
MChJ USTO ISMOIL TEMIR BETON	muvaffaqiyatsiz	muvaffaqiyatsiz	muvaffaqiyatsiz

12.05.2022 yildagi 80902-sonli tanlov bo'yicha xarid komissiyasi **Kattaqo'rg'on shahar Hokimiyati 2022 yil 8 apreldagi VI -54-59-7-106-K/22 -sonli sessiya karoriga asosan fukarolar tashabbusi jamqarmasida shakllangan mablagi hisobidan 21- MTT binosini joriy tamirlash ishlarini bajarish** xizmat ko'rsatish g'olib deb topildi:

“DILSHODA OBOD QO'RG'ON” MChJ (304 443 047)

va zahira ijrochisi: “NUR COMPANY” MChJ (305 544 276)

Ovoz berish

Komissiya	F.I.O	Ovoz berish	Bildirilgan fikrlar
Raisi komissiya	TUVALBOYEV ADHAMJON BAHODIR O'G'LI	Qabul qilaman	
Komissiya a'zosi	RAXIMOV ERKINJON ABDURAXMANOVICH	Qabul qilaman	
Komissiya a'zosi	USAROV NAJMIDDIN MARDONOVICH	Qabul qilaman	
Komissiya a'zosi	RIZAYEVA ELEONORA BAXTIYOROVNA	Qabul qilaman	
Komissiya a'zosi	MARDANOV XURSHID SAMATDJANOVICH	Qabul qilaman	

Xarid komissiyasi protokoli eri orqali imzolandi